



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 11-fevral, № 28 (9199)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



OSIYO INFRATUZILMAVIY INVESTITSIYALAR BANKI BILAN STRATEGIK SHERIKLIK YANADA KENGAYTIRILADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki prezidenti Szou Szyai boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuv avvalida mamlakatimiz yetakchisi ushbu nufuzli ko'p tomonlama moliyaviy institut rahbarini lavozimga kirishgani bilan samimiy tabrikladi.

O'zbekistonning Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki bilan strategik sherikligini kengaytirishning amaliy masalalari atroficha muhokama qilindi.

So'nggi yillarda bank bilan ko'p qirrali hamkorlik jadal rivojlanmoqda. Amaldagi va istiqbolli ko'shma loyihalar portfeli 7 milliard dollardan oshdi. O'tgan yilning o'zida moliyalashtirish hajmi 1 milliard dollardan ziyodni tashkil etdi.

O'zbekiston Prezidenti xususiy sektor, ayollar va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ishlab chiqish va ilgari surish, kambag'allikni qisqartirish dasturini amalga oshirishga ko'maklashish, muqobil energetika, energiya samaradorligi, suv ta'minoti, ijtimoiy xizmatni rivojlantirish kabi ustuvor sohalarida samarali hamkorlikni kengaytirish zarurligini qayd etdi.

O'zbekiston Prezidenti ahamiyatga ega yirik infratuzilmaviy loyihalarda faol ishtirok etishi muhimligi ta'kidlandi.

O'z navbatida, Szou Szyai mamlakatimizdagi o'zgarishlar ko'lamini yuqori baholab, Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar dasturini har tomonlama qo'llab-quvvatlashda davom etishga tayyorligini bildirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O'ZBEKISTON VA QIRG'IZISTON YETAKCHILARI TELEFON ORQALI MULOQOT QILDILAR

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov bilan telefon orqali muloqot qildi.

O'zbekiston bilan Qirg'iziston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi.

Tovar ayirboshlash sur'ati barqaror ekanini mamnuniyat bilan qayd etildi. Sanoat kooperatsiyasi loyihalari amalga oshirilmoqda, yirik infratuzilmaviy loyihalar, shu jumladan, Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temir yo'li va Qambarota gidroelektr stansiyasi qurilishi bo'yicha birgalikdagi ishlar davom ettirilmoqda.

Prezidentlar mintaqaviy kun tartibining dolzarb jihatlarini yuzasidan ham fikr almashdilar, bo'lajak ikki va ko'p tomonlama tadbirlar rejasini muhokama qildilar.

O'zA.

Dunyo nigohi

CHUQUR TARIXIY VA MA'NAVIY ILDIZLARGA TAYANGAN MUNOSABATLAR

Pokiston O'zbekistonni do'st mamlakat, xalqaro jamoatchilikda obro'si baland strategik sherik sifatida ko'radi. 1992-yilda diplomatik munosabatlar o'rnatilgan paytdan beri ikki mamlakat umumiy manfaatlariga mos keladigan qator masalalar va loyihalar bo'yicha muvaffaqiyatli hamkorlik qilib kelmoqda. Mamlakatlarimiz SHHT, IHT, OHCHK kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar doirasida yaqin va samarali aloqalarni yo'lga qo'ygan. Shu tariqa rasmiy Toshkent va Islomobod jahonda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga, shuningdek, izchil rivojlanishga munosib hissa qo'shmoqda.

O'zbekiston Prezidentining 5-6-fevral kunlari Pokistonga davlat tashrifi sheriklik doirasini kengaytirib, o'zaro aloqalar tarixining yangi bosqichiga start berdi. Tashrif davomida imzolangan o'nlab hukumatlararo va biznes kelishuvlar ikki tomonlama hamkorlikni yuqori darajaga ko'tarishga turtki bo'lishi muqarrar. Transport-logistika, qishloq xo'jaligi, sanoat va ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa sektorlar iqtisodiy hamkorligimizning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. Ikki mamlakat kompaniyalari qo'shma korxonalar tuzib, samarali loyihalarini amalga oshirishiga shubha yo'q, albatta. Buning uchun imkoniyatlar yetarli. Ikki davlat o'zaro savdo-sotiqni kengaytirishga e'tibor qaratmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va mintaqalararo aloqalar sherikligimizda alohida ahamiyatga ega.

Nuqtai nazar

O'zbekiston – Ozarbayjon:

ISTIQBOLLI HAMKORLIKNING YANGI BOSQICHI

So'nggi yillarda Yangi O'zbekistonning dunyo davlatlari bilan hamkorligi jadal rivojlanish bosqichiga o'tdi. Birgina Ozarbayjon Respublikasi bilan aloqalar izchil kengayib borayotgani fikrimizga yaqqol misol. Shu jihatdan, O'zbekiston – Ozarbayjon yuqori samara beradigan ko'p qirrali hamkorlik salohiyatini hayotga tatbiq etishga intilgan holda keng qamrovli strategik sheriklik hamda ittifoqchilikka sodiq ekanini tasdiqlamoqda. O'zaro munosabatlar manfaatlarini hisobga olish tamoyili asosida har ikki xalq uchun ham foydali sohalarida rivojlanmoqda.

O'zA.

NAVOIY VILOYATINI IJTIMOIIY-IQTISODIIY RIVOJLANTIRISH BO'YICHA USTUVOR VAZIFALAR BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 10-fevral kuni Navoiy viloyatini ijtimoiiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar va kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Ilgari Navoiy sanoati deganda, asosan, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, "Navoiyuran", "Navoiyazot", "Qizilqumsement" kabi yirik tarmoq korxonalari nazarda tutilar, investitsiya ham, ish o'rinlari ham, iqtisodiy o'sish ham aynan shu korxonalar faoliyatiga bog'liq edi.

Hududlarni kompleks rivojlantirish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va yangi "o'sish nuqtalari"ni aniqlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijasida 2025-yilda yirik tarmoq korxonalariga bog'liq bo'lmagan hududiy investitsiyalar hajmi 1,4 milliard dollarga yetdi. 2026-yilda ushbu ko'rsatkichni 2 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan.

Shu bilan birga, o'tgan yilda viloyatda makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlandi. Yalpi hududiy mahsulot 168 trillion so'mni tashkil etib, 7,7 foizga o'sdi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida 8,3 foiz, qishloq xo'jaligida 4,7 foiz, xizmatlar sohasida esa 13,7 foiz o'sish qayd etildi. 161 mingta ish o'ni yaratildi, ihsizlik va kambag'allik darajasi 4,2 foizga tushdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, har bir tuman va shaharni ularning solishtirma ustunliklaridan kelib chiqqan holda rivojlantirish zarur.

Xususan, Navoiy va G'ozg'onda pardozbop toshlar va turizm, Tomdi va Uchquduqda tog'-kon sanoati, Navbahorda to'qimachilik va bog'dorchilik, Konimexda yaylov chorvachiligi, Zarafshonda zargarlik va axborot texnologiyalari, Karmanada

kimyo sanoati va madaniy turizm, Navoiy shahrida esa mashinasozlik va servis sohalar bo'yicha katta salohiyat borligi ko'rsatib o'tildi.

Shu bilan birga, sanoat rivoji hududlar kesimida nomutanosib ekanini qayd etildi. Viloyat bo'yicha jon boshiga sanoat mahsuloti hajmi 177 million so'mni tashkil etsa-da, Tomdi, Nurota, Xatirchi, Navbahor va Qiziltepa tumanlarida ushbu ko'rsatkich respublika o'tacha darajasidan pastda qolmoqda. Vaholanki, Tomdi va Nurota marmar, kvarts va bazalt kabi tabiiy resurslarga boy.

Shu munosabat bilan Nurota tumanida 50 gektar maydonda granit sanoat parki, qayta ishlab klasteri va pardozbop toshlar bozorini tashkil etish, Xatirchi tumanida 50 gektar maydonda kichik sanoat zonasini ishga tushirib, 100 million dollarlik yuqori qiymatli loyihalarini joylashtirish takliflari ma'qullandi. Pardozbop toshlar ishlab chiqarishni bir necha barobar oshirish vazifasi qo'yildi.

Ushbu quvvatlarni kadrlar bilan ta'minlash maqsadida Navoiy raqamli texnologiyalar texnikumida tog'-kon va kimyo sanoati uchun kadrlar tayyorlash markazi tashkil etiladi. Umuman, joriy yilda viloyatga 4,2 milliard dollar xoriij investitsiya jalb qilib, eksport hajmini 1,5 milliard dollarga yetkazish muhimligi qayd etildi.

Yig'ilishda viloyatning kichik va o'rta korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni mahalliyashtirishga kengroq

jalb qilish zarurligi ta'kidlandi.

Qishloq xo'jaligi yo'nalishida ham mavjud imkoniyatlar to'liq ishga solinmayotgani ko'rsatib o'tildi. Zero, viloyatdagi 9 million gektar yaylov qo'ychilik, tuyachilik va yilqichilikni iqtisodiyot drayveriga aylantirish uchun yetarli. Chorvachilikni rivojlantirish maqsadida 2026-yilda xorijdan mayda shoxli mol, zotli tuya va otlar olib kelinadi.

Umuman, viloyatdagi 3,3 million gektar yaylov loyihaviy yondashuv asosida qishloq xo'jaligi aylanmasiga kiritiladi. Xitoyning cho'llanishiga qarshi kurash tajribasi asosida Navoiyda cho'llanishni bartaraf etishga qaratilgan loyihalar amalga oshiriladi. Viloyat ta'lim sohasida ham respublikada yetakchi hududlardan biri hisoblanadi. Oliy ta'lim qamrovi 71 foizni tashkil etmoqda, o'tgan yilda 10 ta maktab bitiruvchilari oliygochlarga kirish bo'yicha 100 foizlik natijaga erishdi.

Yangi o'quv yilidan boshlab Navoiy va Zarafshon shaharlarida "Bir maktab – bir IT sinf" tamoyili asosida ixtisoslashtirilgan sinflar ochish taklif etildi. Buning uchun viloyatdan 100 nafar o'qituvchi IT va sun'iy intellekt yo'nalishlarida poytaxtda va xorijda malaka oshiradi, Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Zarafshon filialida sun'iy intellekt va kibernetika yo'nalishida kunduzgi ta'lim dasturi yo'lga qo'yiladi.

Yig'ilishda turizm sohasi ham muhokama qilindi. 2026-yilda Navoiy viloyatiga 600 ming xoriij va 3 million

mahalliy sayyohni jalb qilish, 72 ta yangi joylashtirish vositasini ishga tushirish hamda 500 ta yangi ish o'ni yaratish rejalashtirilgan.

Buning uchun tuman va shaharlar markazidagi 65 ta mahallani bog'lovchi ko'chalar, sohil va yo'l bo'yi hududlarida savdo, ko'ngilochar va dam olish markazlari barpo etiladi, shuningdek, turistik salohiyati yuqori bo'lgan 18 ta mahallada mehmon uylari tashkil etiladi. Xalqaro yo'llar bo'yidagi 15 ta mahallada savdo va xizmat ko'rsatish ob'ektlari faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Nurota tumanida "Naqshlar va nurlar" milliy kashtachilik markazini tashkil etish, Xatirchi tumanida Langar va Angidon mahallalarini turizmga ixtisoslashtirgan holda rivojlantirish, Nurota va Konimex tumanlaridagi 4 ta qishloqni turizm qishlog'iga aylantirish rejalashtirilgan.

"Og'ir" tuman sifatida belgilangan Navbahor tumanidagi Samishsoy hududi atrofida dam olish va ko'ngilochar maskan tashkil etish bo'yicha master reja ishlab chiqib, sayyohlar oqimini 3 karraga oshirish hamda 200 dan ortiq ish o'rinlari yaratish imkoniyati mavjudligi qayd etildi.

Navoiy shahridagi Alisher Navoiy bog'i, Yoshlik ko'li va ular atrofida hududlar bugungi kun talablariga to'liq javob bermasligi qayd etilib, ularni yaxlit holda rivojlantirish orqali aholi uchun qulay va zamonaviy dam olish sharoitlarini yaratish muhimligi ta'kidlandi.

taraqqiyotidagi o'rni va mas'uliyati atroficha muhokama qilindi.

Davlat tomonidan xotin-qizlarning ilmiy faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tashabbuslar, grant dasturlari va ta'lim imkoniyatlarining amaliy ahamiyati alohida qayd etildi.

So'zga chiqqanlar bugungi kunda ilm-fan sohasida xotin-qizlar ulushini oshirish, ayniqsa, aniq va texnik fanlar, muhandislik va innovatsiya yo'nalishlariga qizlarni keng jalb etish ustuvor vazifalardan biri ekanini ta'kidladi.

O'zA.

OLIMA AYOLLARGA EHTIROM

11-fevral – Ilm-fan sohasidagi xotin-qizlar xalqaro kuni munosabati bilan Toshkent davlat transport universitetida "Ilm-fan sohasida qizlar: imkoniyatlar va mas'uliyat" mavzuida respublika anjumani bo'lib o'tdi.

Anjuman

Unda Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva ishtirok etdi.

Parlament yuqori palatasi rahbari o'z so'zida Ilm-fan sohasidagi xotin-qizlar xalqaro kuni formal tenglik yoki alohida imtiyoz berish masalasi emasligini ta'kidladi. Ushbu sana inson kapitali samaradorligini

oshirish, ilmiy qarorlar sifatini yaxshilash hamda transport, fan va barqaror taraqqiyotning kelajagini ta'minlashga qaratilgan muhim tashabbusdir.

Tadbir davomida xotin-qizlarning ilmiy tadqiqotlar va innovatsion loyihalardagi ishtiroki, zamonaviy bilim va texnologiyalarni egallash borasidagi imkoniyatlari, jamiyat

O'zA.



BUYUK SOHIBQIRON RUHINI SHOD ETIB...

Prezidentimizning shu yil 5-fevraldagi “Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san’at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690-yilgini keng nishonlash to’g’risida”gi qarori buyuk bobomiz ruhini behad shod qilganiga aslo shubha yo’q.

Aks sado

Qaror davlat ahamiyatiga ega, jamiyatimizni rivojlantirish yo’lida olg’a qo’yilgan qadam ekani bilan muhim. Unda ta’kidlanganidek, mustaqilligimiz tufayli buyuk Sohibqironning ulug’ nomi va qutlug’ xotirasi tarixan to’la tiklandi, tarixiy adolat va haqiqat qaror topdi. Ulkan davlatchilgimiz timsoliga aylangan Amir Temur saltanati, ajdodimizning suronli hayoti va bemisli shijoati bugungi kunda xalqimiz qaddini ko’tarib turibdi, uchinchi Renessansga qarab borayotgan barkamol yosh avlod qalbiga esa faxr-iftixor tuyg’usini joylamoqda.

Qarorda Amir Temurning boy shaxsiyati, uning bashariyat tarixida va Turon tamaddunidagi o’rni haqida hamda Buyuk temuriylarning ulkan merosini chuqur o’rganishi, Vatanimiz va xorijiy ellarda ommalashtirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilab qo’yilgan. Chindan ham, bu vazifa bizlar uchun g’oyat zarur. Chunki hozircha Amir Temur merosini xorijda targ’ib va tashviq etishda ko’ngildagidek ish olib borayotganimiz yo’q. Garchi shu paytgacha ulug’ bobomiz siymosi besh asrdiki, Yevropa adabiyoti va san’atida, mashhur ijodkorlarning tragediya va operalarida bosh qahramonlardan biri sifatida tarannum etib kelinayotgani ma’lum. Yo’q, biz Amir Temurdagi buyuk siymoning bugun, Yangi O’zbekistonda qanday e’zozlanayotgani, haq qaror topgani, bemisli hurmatga sazovor bo’layotgani, tarixining chuqur va tizimli o’rganilayotgani, xotirasi o’zbek xalqining yurak-yuragidan joy olgani, har yili tug’ilgan kuni bayram qilinayotgani va hokazolar haqida xorijda bo’limlarimiz faollari bilan va davlatimiz elchixonalari ko’magida anjumanlar o’tkazishimiz, qizg’in targ’ibot va tashviqot ishlarini olib bormog’imiz lozim.

Mamlakatimizda oliy “Amir Temur ordeni” ta’sis etilgani, bobomiz haqida she’rlar, romanlar yozilayotgani, Buyuk temuriylarga bag’ishlab kinofilmlar olinayotgani, xalqaro anjumanlar o’tkazilayotgani, teatrlar sahnalarida u haqda opera va spektakllar namoyish etilayotgani, “Temurbeklar maktablari”da Sohibqironning bugungi yosh avlodi zavq-shavq bilan bilim olayotgani haqida dunyo jamoatchiligining xabardorligini yanada oshirsa, bundan xalqimiz behad xursand bo’ladi.

Shu ma’noda, diqqatingizni qarorning 4-bandiga qaratmoqchiman. Unda 2026-yil 1-martdan boshlab, Amir Temur va temuriylarning jahon tamadduni rivojiga qo’shgan hissasini keng yoyish maqsadida “Buyuk temuriylar” atamasini (albatta, ular – Buyuk temuriylar!) xalqaro miqyosda ilmiy istiloh sifatida joriy etish yo’lida xorijiy davlatlarda “Buyuk temuriylar tarixi va madaniy merosi” mavzuida uchrashuvlar, taqdimotlar, muloqotlar, anjumanlar o’tkazish ko’rsatib qo’yilgan.

Har yili aprel oyining “Amir Temur oyligi” deb e’lon qilinishi ham ayni muddao bo’ldi. Bu oyda barcha umumta’lim muassasalari, “Temurbeklar maktablari”da, harbiy qismlarda, oliy o’quv yurtlarida, mahallalarda, muassasalarda shoirlar, yozuvchilar, temurshunos olimlar,




san’atkorlar ishtirokida ma’rifiy-badiiy uchrashuvlar, kechalar o’tkaziladi va bu tadbirlar, shubhasiz, yosh avlodni Yangi O’zbekistonning bunyodkorlari etib tarbiyalashda xolis xizmat qiladi.

Qaror ko’lami juda keng, ko’tarilgan mavzular rang-barang. Temuriylar davri tarixini tizimli o’rganish va ilmiy natijalarni keng targ’ib etish bo’yicha 2030-yilgacha mo’ljallangan “Yo’l xaritasi” tasdiqlangan. Unda keltirilishicha, 2026-yil 9-10-aprel kunlari O’zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida “Amir Temur va temuriylar tamaddunining jahon tarixi va madaniyatidagi o’rni va ahamiyati” mavzuida xalqaro ilmiy konferensiya o’tkaziladi. Xorijiy mehmonlar ishtirokida Samarqandga sayohat uyushtiriladi, “Temur tuzuklari” yodgorligining ilmiy izohli matni fors, arab, xitoy, ingliz, fransuz, ispan va rus tillarida nashr etiladi. “Temuriylar davrining 100 nodir qo’lyozmasi”, “Temuriylar davrining 100 nodir durdonasi” kitob-albomlari tayyorlanadi. Xorijiy davlatlar kutubxonalarda saqlanayotgan Buyuk temuriylar tarixiga oid asl qo’lyozma manbalar nusxalari O’zbekistonga olib kelinadi...

Amir Temur saltanatining Yevropa davlatlari bilan diplomatik aloqalari haqida “Tirik tarix” loyihasi bo’yicha yaratilgan tarixiy-badiiy va hujjatli filmlarni Fransiya, Ispaniya, Buyuk Britaniya kabi xorijiy davlatlarda namoyish etish belgilangan. Shuningdek, Amir Temur va temuriylar merosini xalqaro darajada targ’ib etishni rag’batlantirish (jumladan, “xalqaro mukofot” berish), oliy ta’lim tashkilotlari magistratura bosqichi talabalari uchun Amir Temur stipendiyasini ta’sis etish takliflarini ishlab chiqish, ko’p nodir kitoblarni sifati nashrdan chiqarish ko’zda tutilgan.

Qarorda qayd etilgan barcha vazifalar ulug’ tariximiz va madaniyatimizning hali uncha yoritilmagan qatlamlarini qamrab olgani bilan qadrlidir. Bu boradagi barcha ishlar ona tariximizga nisbatan beqiyos hurmat, e’zoz, mehrning yorqin namunasidir.

Muhammad ALI,
Xalqaro Amir Temur
jamoat fondi raisi,
O’zbekiston xalq yozuvchisi.



CHUQUR TARIXIY VA MA’NAVIY ILDIZLARGA TAYANGAN MUNOSABATLAR

Oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining birinchi yig’ilishidan so’ng O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharif tomonidan Qo’shma deklaratsiyaning, shuningdek, yetakchilar huzurida 30 ga yaqin hujjatlarining imzolaniishi tashrifning naqadar sermahsul kechganini ko’rsatadi. Ayniqsa, Tashqi ishlar vazirliklari o’rtasida 2026 – 2028-yillarga mo’ljallangan hamkorlik dasturi, O’zbekiston – Pokiston hududlararo forumini tashkil etish to’g’risida shartnoma, Imtiyozli savdo to’g’risidagi bitimga yangi tovarlar ro’yxatini kiritish haqida bayonnoma, shuningdek, O’zbekiston – Pokiston Ishbiaronlik kengashini tuzish, qishloq xo’jaligi, farmatsevtika, to’qimachilik va tikuvchilik sanoati, raqamli va axborot texnologiyalari sohalarida hamkorlik to’g’risidagi bitimlar mintaqalararo aloqalarimizni yangi darajaga olib chiqadi.

Munosabatlارimizda O’zbekiston – Afg’oniston – Pokiston koridorini yaratish loyihasiga katta e’tibor qaratilayotgani e’tiborga molik voqe’lik, deb o’playman. Mazkur loyiha mintaqalarni bog’lab, Markaziy Osiyo mamlakatlarining Janubiy Osiyo bozoriga chiqishiga imkon berishi nuqtayi nazaridan strategik ahamiyatga ega.

Islomoboddagi muzokaralar va erishilgan kelishuvlar ikki mamlakat uchun yangi istiqbollar ochdi. Siyosiy darajadagi muloqotlar va amaliy bosqichga o’tkazilishi rejalashtirilgan loyihalar mintaqaviy integratsiya, iqtisodiy o’sish va madaniy almashinuvning chuqurlashuviga xizmat qiladi. O’zbekiston va Pokiston o’rtasidagi strategik sheriklik munosabatlari o’rnatilganining besh yilligiga to’g’ri kelgan ushbu tashrif ikki davlat aloqalarida “yangi iqtisodiy davr” boshlanganidan dalolat beradi.

So’nggi besh yilda savdo aylanmasining 2,5 baravar, qo’shma korxonalarning

esa 3 baravar oshgani shunchaki statistika emas, balki ikki mamlakat biznes vakillari o’rtasida o’zaro ishonch paydo bo’lganining natijasidir. Savdo aylanmasini 2 mlrd. dollarga yetkazish maqsadi va 3,5 mlrd. dollarlik bitimlar portfeli ikki mamlakat iqtisodiyoti bir-birini to’diruvchi xarakterga ega ekanini ko’rsatadi. Hamkorlik yo’nalishlari sifatida farmatsevtika, elektrotexnika va tog’-kon sanoatining tanlanishi katta strategik qadamdir. Farmatsevtika sohasida Pokiston dunyoda yetakchilardan biri bo’lib, bu boradagi hamkorlik O’zbekistonda qo’shma dori vositalari ishlab chiqarish, dori-darmon narxini

hamkorlikka ham e’tiborni kuchaytirmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Pokiston Mudofaa kuchlari Oliy Bosh qo’mondoni – Qurolli Kuchlarning quruqlikdagi qo’shinlari qo’mondoni, feldmarshal Asim Munir bilan uchrashuvi ikki davlatning Markaziy va Janubiy Osiyodagi xavfsizlik masalalariga qarashlari musharak ekanini ko’rsatadi. Bugungi murakkab geosiyosiy vaziyatda, ayniqsa, Afg’oniston omili va xalqaro



“ Pokiston tomonidan O’zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo’lishi qo’llab-quvvatlanayotgani, o’z navbatida, O’zbekistonning BMT Xavfsizlik Kengashi nodomiy a’zoligi uchun Pokiston nomzodini 2025-2026-yillar uchun qo’llab-quvvatlashi ikki davlatning global integratsiya va xavfsizlik masalalarida ham hamfikir ekanini tasdiqlaydi. ”

arzonlashtirish va mahalliyashtirishga xizmat qiladi. To’qimachilik va qishloq xo’jaligi yo’nalishida hamkorlik ikki yirik paxta yetishtiruvchi va qayta ishlovchi davlatning birlashishi hamda jahon bozorida raqobatdosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi. O’zbekistonning dengiz portlariga chiqishga intilishida Pokiston eng qisqa va qulay yo’nalish hisoblanadi.

Pokiston tomonidan O’zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo’lishi qo’llab-quvvatlanayotgani, o’z navbatida, O’zbekistonning BMT Xavfsizlik Kengashi nodomiy a’zoligi uchun Pokiston nomzodini 2025-2026-yillar uchun qo’llab-quvvatlashi ikki davlatning global integratsiya va

terrorizm xavfi saqlanib qolayotgan bir paytda, mudofaa sohasidagi hamkorlik nafaqat ikki davlat, balki butun mintaqa tinchligi uchun muhim poydevor hisoblanadi.

“Global sanoat va mudofaa yechimlari” (GIDS) kompaniyasi bosh qarorgohiga tashrif buyurilishi O’zbekistonning o’z mudofaa salohiyatini zamonaviylashtirish borasidagi intilishlarini ifodalaydi. Pokiston mudofaa sanoatida katta tajribaga va zamonaviy ishlanmalar (dronlar, raketa tizimlari, zirhli texnikalar)ga ega. Ikki mamlakat korxonalari o’rtasidagi kooperatsiya aloqalarini faollashtirish haqidagi kelishuv shuni anglatadiki, O’zbekiston endilikda nafaqat tayyor

O’zbekiston – Ozarbayjon:

ISTIQBOLLI HAMKORLIKNING YANGI BOSQICHI

O’zbekiston va Ozarbayjon bir-biriga iqtisodiy istiqbolli sherik sifatida qaramoqda. Yirik va kichik biznes, ta’lim tashkilotlari aloqalarini kengaytirish bo’yicha ikki tomonlama talabning oshib borayotgani ham buni tasdiqlaydi. Mamlakatlarimiz iqtisodiyotning turli sektorlarida keng ko’lamli hamkorlik bo’yicha yangi kun tartibini ishlab chiqmoqda. Bu esa global beqarorlik hamda zarur mahsulotlarni yetkazib berish zanjirlari uzilishi sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb etyapti.

Bu jarayonga ta’lim sohasi vakillari ham munosib hissa qo’shmoqda. Jumladan, o’zbekistonlik yoshlarning ta’lim sohasida O’zbekiston OTMLarini tanlayotgani ham O’zbekistonning mintaqada “ta’lim xabibi”ga aylanib borayotganidan dalolat.

Vazirlar Mahkamasining tegishli farmoyishi bilan O’zbekiston Respublikasi hamda Ozarbayjon Respublikasi Davlatlararo oliy kengashi birinchi yig’ilishining yakunlari bo’yicha “Yo’l xaritasi” tasdiqlangan. Ushbu harakatlar rejasida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga belgilangan topshiriqlar ijrosini

ta’minlashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan. O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti (O’ZDJTU) ham Ozarbayjon oliy ta’lim hamda ilmiy tashkilotlari bilan to’g’ridan-to’g’ri aloqalar o’rnatgan. Universitetlar talabalari, professor-o’qituvchilari va tadqiqotchilari almashinuvi jadal ishlamoqda. Qolaversa, o’zaro ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, qo’shma ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, talabalar ishtirokida konferensiya, simpozium, forum hamda seminarlar tashkil etish, o’quv-metodik qo’llanmalar, ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida ma’lumot almashish masalalari ham tizimli yo’lga qo’yildi.

Aniq misollarga e’tibor qaratsak, 2025/2026 o’quv yilidan O’ZDJTUda ozarbayjon tili uchinchi xorijiy tili sifatida o’qitila boshlandi. O’tgan yili may oyida Ozarbayjon tillar universiteti tomonidan O’ZDJTU bazasida Ozarbayjon tili markazi ochildi.

O’z navbatida, shu yil 3-fevral kuni Ozarbayjon tillar universiteti bazasida Alisher Navoiy tavalludining 585-yilgiga bag’ishlab O’zbek tili va adabiyoti markazi tashkil etildi. Mazkur



markaz O’ZDJTuning Ozarbayjon ta’lim tashkilotlari bilan aloqalarini doimiy rivojlantirib borishi uchun ta’lim hamda do’slik ko’prigi bo’lishi nazarda tutilgan.

2025/2026 o’quv yilida 4 nafar ozarbayjonlik yosh universitetimizga talabalikka qabul qilingan bo’lsa, 5 nafar ozarbayjonlik o’qituvchi O’ZDJTUda mustaqil izlanuvchi sifatida faoliyat olib bormoqda. Ozarbayjon tillar universitetining 4 nafar professor-o’qituvchisi esa ta’lim jarayoniga xorijlik mutaxassis-o’qituvchi sifatida jalb etilgan.

Tobora jadal rivojlanayotgan O’zbekiston va Ozarbayjon munosabatlari muhim ahamiyatga molikdir. Teng huquqliik, konstruktivlik va strategik sheriklik tamoyillariiga tayangan bu munosabatlar o’zaro ishonch, bir-birini chuqur anglash hamda tomonlarning milliy manfaatlariga hujmat asosida izchil rivojlanib borayotgan samarali hamkorlik namunasi sifatida e’tirof etilmoqda.

Ilhomjon TO’XTASINOV,
O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori, professor.

Bunyodkorlik

“SHIRMONBULOQ” – JOZIBALI SAYYOHLIK MASKANI

Andijon viloyatida turizm sohasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Sayyohlar oqimini ko’paytirish, ular uchun zamonaviy va qulay infratuzilma yaratish maqsadida buyuq loyihalar amalga oshirilyapti. Buluqboshi tumanida barpo etilayotgan “Shirmonbuloq” turizm maskani bunga yaqqol misol bo’ladi.



– Bunyodkorlik ishlari bosqichma-bosqich, aniq reja asosida olib borilmoqda, – deydi viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasi boshlig’i Fazliddin Alijonov. – Bundan ko’zlangan maqsad hududda sayyohlar uchun qulay muhit yaratish, mahalliy aholi bandligini ta’minlash va ichki turizmni faollashtirishdir.

Bu maskanda faqat dam olish emas, balki salomatlikni tiklash va ekologik turizmni rivojlantirish ham ko’zda tutilgan. Xususan, loyiha doirasida 10 km. elektr tarmog’i tortilib, 4 ta transformator o’rnatilmoqda. 6,5 km. ichimlik suvi tarmoqlari va 4 ta suv inshooti barpo etilyapti. Shu bilan birga, 4,8 km. ekoyo’taklar, 3 km. yangi yo’llar, 40 dan ziyod kapsulali va 30 ga yaqin yakka tartibdagi mehmon uylari, 150 o’rinni sihatgoh, ekoyo’vlonlar, sun’iy ko’l, akvapark, dor yo’li va ziplayn kabi zamonaviy turizm obyektlari qurilmoqda.

Qisqasi, 107 gektar maydonni qamrab olgan “Shirmonbuloq” tez orada jozibali dam olish va sayohat markaziga aylanadi.

Samirjon HUSANOV
(“Xalq so’zi”).

Yuksak bilimli, dunyoqarashi keng, zamonaviy fikrlaydigan, texnologik jihatdan savodxon yoshlari ko'p bo'lgan yurtida tinchlik va taraqqiyot, o'zaro jipslik hamisha barqaror bo'ladi.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti



ENG GULLAGAN YOSHLIK CHOFIMDA...



Yoshlik –
inson umrining eng go'zal, sermazmun, shijoatu intilishlarga boy pallasidir. Qalblarda orzu-niyatlar jo'sh uradi, ko'zda nurafshon kelajak umidlari jilva etadi, ko'ngil otashin hislarga bag'ridan joy beradi.

E'tiboringizga havola etilayotgan bu galgi "Eng gullagan yoshlik chofimda..." sahifasida yoshlik atalmish go'zal faslning inson hayotidagi o'rni, bebaho qadri, beg'uborligi, ba'zan tajribasizlik sabab kishiga unutilmas saboqlar berishi, mamlakatimizda navqiron avlod vakillariga ko'rsatilayotgan e'tibor va uning to'li mevalari haqida so'z boradi.

Bilim – yagona najot

Oddiy dehqon oilasida voyaga yetganman: otam dehqon, onam esa uy bekasi. Qishloq sharoiti, mol boqish, uy-ro'zg'or yumushlari, xullas, bolaligim shu muhitda o'tsa-da, ota-onam bir narsani juda aniq tushuntirib ulg'aytirishdi: bilim – yagona najot. Shu bois bolaligimizdanoq yaxshi o'qishga intildik, ayniqsa, ingliz tilini chuqur o'rgandik.

Mulohaza

Bugun ortga qaray shuni aniq aytay olamanki, aynan shu munosabat men uchun muvaffaqiyat formulasi. Oddiy qishloqdan chiqib, Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan "El-yurt umidi" jamg'armasi grantiga sazovor bo'ldim va magistratura bosqichini Buyuk Britaniyaning Edinburg universitetida o'tadim. Ko'plab xorijiy davlatlarda bo'lib, turli jamiyatlarda, tizimlarda va munosabatlarda bo'ldim. Kitob – insonning hayot yo'lini yorituvchi chiroq ekaniga takror-takror amin bo'ldim. Va yurtimizda yoshlarni kitobga oshno etishga xizmat qiluvchi "Mutolaa" ma'rifiy loyihasiga asos soldim.



El-yurtimiz navqiron avlodni qadrlaydi, ularga ishonadi. Buning qadriga yetmoq kerak: chunki o'z yoshlarini davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlaydigan O'zbekiston kabi mamlakat yana qayda bor?

"Orzularingga chekkan mashaqqatlarning evaziga erishasan". Bu mening hayotdagi shiorim. Unutmang: tinimsiz mehnat va o'ziga bo'lgan mas'uliyatning mevasi ham shunga yarasha bo'ladi.

Sirojiddin OLIMOV,
"Mutolaa" loyihasi rahbari.

Sabot

Istak va ishonch uyg'unligi

"Yoshlik – g'o'rlik", deb bejiz aytishmagan ekan. Kollejni tamomlagach, mo'ayyad daromad ilinjida tavakkal qilib, 2019-yilda xorijga ketdim. Besh yil qurilishdan tortib, oshpaz yordamchisigacha bo'lgan turli yumushlarni bajardim. Boshimdan ko'p qiyinchiliklar o'tdi va yana yurtga qaytdim.

Nima qilishni bilmay yurgan kunlarning birida mahallamizdagi yoshlar yetakchisi xorijdan qaytgan yigit-qizlar bilan mas'ullar ishtirokida ochiq muloqot o'tkazilayotganini aytib qoldi. Qiziqib, ushbu tadbirga bordim. To'g'risi, u yerda aytilgan gaplar, yigit-qizlarga o'z biznesini boshlashi uchun berilayotgan imkoniyatlar, imtiyozlar haqidagi ma'lumotlar qalbinga cho'g' soldi. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagi paydo bo'ldi.

Xorijda oshxonada oshpaz yordamchisi bo'lib, bu hunarni ancha-muncha o'rganib olgandim. Shu bois mahallada kichik "Fast food" do'koni ochishga qaror qildim. Fikrimni mahalladagi yoshlar yetakchisi ham ma'qullab, Yoshlar ishlari agentligining tuman bo'limi rahbari bilan uchrastirdi. U kishi barcha yo'l-yo'riqlarni o'rgatib, hujjat ishlarida yordamlashdi. Natijada qisqa muddatda ishni boshlab yubordim. Mijozlarimiz soni asta-sekin ortib bordi. Hozir daromadimiz yaxshi. O'zim bilan birga yana 5 nafar tengqurimni ish bilan ta'minladim.

Yoshlarga eng katta to'siq – aksar hollarda atrofda yashovchi ularga ishonmaslik. "Bo'lmaydi", "Uddalay olmayman", "Yoningda kimning bor?" degan gaplar har qanday yoshning shashtini sindiradi. Ammo kishi o'z kuchi, salohiyatiga ishonsa, imkoniyatlarini to'g'ri baholasa, albatta, yo'lini topadi.

Farhod KARIMOV,
Qarshi tumani, Gulshan mahallasi

Biz – Yangi O'zbekiston bunyodkorlari

Talabalik yillarimdan qat'iyat, yetakchilik va ijtimoiy faollik – asosiy yo'ldoshim. Albatta, mehnatim va izlanishlarim e'tirof etilmoqda, o'zim o'qigan Toshkent davlat yuridik universiteti tarixidagi eng yosh stipendiya sovrindorlaridan biri bo'lganim buning isboti.

Shundan so'ng Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zosi o'laroq jamoamiz bilan birgalikda yoshlar orasida qonunchilikni targ'ib qilish, ularni huquqiy jarayonlarga faol jalb etish loyihalari hamda O'zbekiston bilan Yevropa va MDH mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlik tashabbuslarida qatnashish imkoniyati paydo bo'ldi.

Keyinchalik "Erasmus+ exchange" dasturi g'olibi sifatida Polsha davlatida tahsil olish imkoniyatiga ega bo'ldim. Bugungi kunda esa O'zbekiston bolalar tashkilotida Xalqaro hamkorliklar va grantlar bo'limi rahbari sifatida faoliyat yuritib, jamoamiz bilan yoshlar uchun xorijiy imkoniyatlarni ochish, xalqaro loyihalarda ishtirok etish va ularning maqsadlariga yetishi uchun zarur sharoit yaratish ustida harakat qilaymiz.

Asosiy maqsadimiz – yoshlarni huquqiy bilimlar bilan qurollantirish, ularni xalqaro maydonlarga olib chiqish, fuqarolik jamiyatini mustahkamlash va "O'zbekiston – 2030" strategiyasidagi maqsadlar ro'yobiga o'z hissamizni qo'shish. Chunki adolati, ochiq va ishonchli jamiyatni shakllantiruvchi kun ayon biz Yangi O'zbekistonning bunyodkor yoshlaridir.

Mehrojbek MAHMUDOV,
Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zosi.

Mamlakat ertasi uchun asosiy kapital

Bugun O'zbekistonda yoshlarga bo'lgan e'tibor yangi bosqichga ko'tarildi: yoshlarga davlat siyosatining alohida obyektiga emas, balki mamlakat kelajagini belgilaydigan asosiy strategik kapital sifatida qaralmoqda. Ayni shu yondashuv asosida yigit-qizlarning ta'lim-tarbiyasi, kasbiy rivoji va jamiyatda munosib o'rinni egallashi uchun keng ko'lami islohotlar amalga oshirilayapti.

Mushohada

Prezidentimizning yoshlar bilan bevosita muloqoti va ularning muammolarini shaxsan eshitib, tizimli yechimlar belgilab berishi alohida e'tiborga molik. Chunki davlat rahbarining navqiron avlod vakillari bilan muntazam uchrashishi, yangi tashabbus va imkoniyatlarni ilgari surishi dunyo amaliyotida kam uchraydigan tajriba.

Yana bir muhim jihat, "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonunda ham yoshlar siyosatiga oid chora-tadbirlar ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Xususan, "yoshlar daftari"ga kiritilgan yigit-qizlarning amaliyot o'tashini qo'llab-quvvatlash, startap loyihalarni moliyalashtirish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, "El-yurt umidi"

jamg'armasi orqali yosh iste'dodlarning xorijiy nufuzli oliy ta'lim muassasalarida tahsil olishini ta'minlash uchun yetarli mablag'lar ko'zda tutilgan.

Yigit-qizlarning faol ishtiroki parlament faoliyatida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Jumladan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yosh deputatlari o'z tashabbuslari, qat'iy pozitsiyasi va zamonaviy yondashuvi bilan qonun ijodkorligi jarayoniga yangi ruh olib kirmoqda. Ular navqiron avlod manfaatlarini himoya qilish, ta'lim, bandlik, tadbirkorlik va raqamli rivojlanishga oid masalalarni



parlament minbarida ochiq va asosli ko'tarib kelmokda. Deputat bo'lish nafaqat katta ishonch, balki ulkan mas'uliyat hamdir. Bu yoshlar ovozi qonunlarda aks ettirish, ularning muammolariga tizimli yechim taklif qilish va davlat siyosatining samarali amalga oshirilishiga o'z hissamizni qo'shishda namoyon bo'ladi. Ishonch bilan aytish mumkin, siyosatga kirib kelayotgan yangi avlod vakillari kelgusida mamlakat taraqqiyotida hal qiluvchi o'rinni tutadi.

Otabel MUSURMONOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Sport – umr bezagi

Ona uchun farzandning muvaffaqiyatidan ortiq saodat yo'q. Oq yuvib, oq tarab, ezgu orzu-umidlari bilan voyaga yetkazgan bolangiz ortidan yaxshi gap eshitingiz, dunyoga sig'may quvonasiz.



Sharaf

Gap shundaki, o'g'lim Ozodbek Olimpiya shaharchasida o'tkazilgan Prezident Olimpiadasida qatnashish baxtiga sazovor bo'ldi. Yurtimiz yoshlarini olimpiya harakatining ezgu g'oyalari asosida birlashtirgan ushbu sport bayramida uning bronza medaliga sazovor bo'lgani esa barchamizga katta iftixor bag'ishladi.

U sportning taekwondo WTF turi bilan o'n yildan beri shug'ullanib keladi. Faoliyati davomida bir qancha yutuqlarga erishganini faxrlanib aytay olaman. O'g'lim meni ikki karra O'zbekiston chempionining onasi degan sharafga muvassas etgan. Musobaqalarda har gal maydonga tushib, raqiblari bilan bellashayotganida g'alabasini kutib, duo qilib turamiz. Ozodbekning murabbiyi Quvondiq Saydiyev uni ilk bor bellashuvga olib borganida 2-sinf o'quvchisi edi. O'shanda o'g'lim Samarqanddagi musobaqadan oltin medal bilan qaytgani hanuz ko'z o'ngimda. Hozirgi kunda esa u Tohir Tog'aymurodov murabbiyiga sport bilan shug'ullanib kelmokda.

Yoshlik – umr bahori. Sport esa ana shu ko'rkam faslning eng muattar gullari bilan bezaydi. Buni o'g'limning hayoti misolida ko'rib turibmiz. Nasib etsa, Ozodbekning bolalarini ham sport bilan, sog'lom turmush tarzi bilan hamnafas tarzda voyaga yetkazamiz.

Madina SUYUNBOYEVA,
Prezident Olimpiadasi sovrindori Ozodbek Risbekovning onasi.
Toshkent viloyati

Intilgan murodiga yetar

Tarjima – og'ir yo'l. Biror asarni o'g'irish uchun yozuvchining ruhiga kirib borish kerak. Jahon adabiyotini o'zbekchada o'qiy boshlaganimdan beri meni hasos mutarjimlar o'g'irgan asarlar, tarjimonlik san'ati o'ziga rom etib keladi. Nizom Komilov tarjimasidagi birgina Nodir Dumbadze qalamiga mansub "Hellados" hikoyasini olaylik. Mutoladan so'ng beixtiyor "le, bu hikoyani mabodo birona o'zbek adibi yozmaganmikan?" deyishingiz turgan gap. Bu ham tarjimonning mahoratidan dalolat.



Fikr

Yurtimizda yosh tarjimonlarga imkoniyatlar keng. Ustozlardan madaniy meros bo'lib qolgan ijod laboratoriyalari yigit-qizlar uchun ulkan baza, maktab. Faqat bundan unumli, o'z o'rinda foydalanmoq lozim.

Bugun xalqimiz, ayniqsa, yoshlar ma'naviyati, dunyoqarashini boyitish ustuvor masalalardan. Bu borada milliy adabiyotimiz bilan bir qatorda jahon adabiyotidagi

vatanparvarlik, insonparvarlik kabi yuksak g'oyalarni haqqoniy aks ettiruvchi badiiy barkamol asarlarning o'rni beqiyos.

Davlatimizda Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofot ta'sis etilgani biz, tarjimonlarni behad quvontirdi. Bu mukofot bilan taqdirlanganlar safida e'tirof etilganimda qalam ahlining qadri ulug' bo'lgan yurtida yashayotganimdan yana bir bor iftixor tuydim.

Saidjalol SAIDMURODOV,
Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofot sovrindori.

Hayot binosini mustahkam poydevor ustiga quring

Dunyo jadal sur'atlarda o'zgarib borar ekan, O'zbekistonning jahonda munosib o'rinni egallashi uchun ana shu o'zgarishlarga hamnafas, zamonaviy kasb va texnologiyalar bo'yicha yetuk kadrlar tayyorlash maqsadga muvofiq.

Ishtiyoq

To'g'ri, yurtimizda yoshlarning ilmfan yutuqlari va yuqori texnologiyalarni mukammal o'zlashtirishi uchun barcha shart-sharoit muhayyo. Biroq ularidan foydalanish haqida gap ketganda, ochig'i, ko'ngil to'lmaydi. Atoqli

shoirimiz "Yoshlik – zangor fasl. Kechdi, sarg'ardi..." deya bejiz aytmagan. Bu faslning har bir daqiqasidan unumli foydalanishimiz kerak. Bo'lmasa, kech bo'lishi mumkin.

Bu haqda o'ylar ekanman, hatto turlari ko'zlarimdan uyqu qochadi. Oldimga yangi-yangi rejalar, maqsadlar



qo'yaman. O'tgan yillarda bir qancha yutuqlarni qo'lga kiritdim. Xususan, Buyuk Britaniyada tashkil etilgan 65-xalqaro matematika hamda Qozog'istonda bo'lib o'tgan 22-xalqaro Jautikov olimpiadalarida qatnashib, faxrli o'rinnarni egalladim.

Albatta, bu muvaffaqiyatlar chegara emas. Ayni kunlarda joriy yilgi respublika va xalqaro musobaqalarga puxta tayyorgarlik ko'ryapman.

Oltin teng vaqtini havoga sovurayotgan tengdoshlarimga esa aytadigan gapim shu: bugun qilingan har bir ish erta uchun poydevor vazifasini o'taydi. Hayotingiz binosini mustahkam asos ustiga quring. Zero, jonajon O'zbekistonimiz ertasi bizning qo'limizda.

Elbek ZOHDJONOV,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning 11-sinf o'quvchisi, xalqaro fan olimpiadalari sovrindori.

2030-yilgacha Navoiy xalqaro aeroportida amalga oshirilayotgan parvozlar sonini 2,3 barobarga oshirib, yiliga 7 mingtaga yetkazish ko'zda tutilgan.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'ktir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-142. 31 016 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yubkub olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumratov tomonidan saqlanadi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir R. Bobojonov.
Masahhah Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 01.35 Topshirildi – 02.35 **1 2 3 4 5 6**